

OTA-ONANING FARZAND OLDIDAGI BURCH VA MAS'ULIYATLARI

QASHQADARYO VILOYATI KO`KDALA
TUMANI 33- MAKTAB PSIXOLOGI
RUSTAMOV ULUG`BEK NAMOZOVICH

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif ota-onalar va farzand munosabatlarni barqarorlashtirishning psixologik hususiyatlari haqida so'z yuritadi. Ota-onalar o'z farzandlarini qanchalik sevmasinlar, uni o'z vaqtida erkalab, o'z vaqtida kamchiliklarini ko'rsatib, sababini chidamlilik va yaxshilab tushintirish yo'li bilan yo'qotish chorasini ko'rish lozim. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalashda, ularning jismoniy va ruhiy kamolotiga va o'qish to'g'risidagi g'amho'rlik qilish muhimdir. Oila, odob-ahloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor bizning burchimizdir.

Kalit so'zlar: Farzand, ota-ona, tarbiya, oila, qadriyat, majburiyat, burch, na'muna, mehr-oqibat, e'tibor.

Farzandlarimiz ongida ona vatanga muxabbat tuyg'usi oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni tinch va obod bo'lishi, avvalambor, o'sib o'nayotgan farzandlarimizga bog'liq. Qaysi oilada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila gullab yashnaydi. Oila kelishi bilanoq, er-xotinning oilaviy va bolalar tarbiyasi masalalariga amalga oshirishda va oilani boshqarishdagi majburiyatlari o'zaro xurmat, do'stlik va xamjihatlik bilan amalga oshirilishi oilaning mustahkam bo'lishi xayotning xursandchilik, mexribonlik bilan o'tishining kafolatidir. Bunday oilada yashayotgan farzand o'zining yaxshi tarbiyasi, hurmatizzatlari bilan ota-onalarini xursand qiladilar, shuningdek, jamiyatimizga munosib shaxs bo'lib yetishadilar. Bolalar juda sezgir kuzatuvchilardir. Bolalar tarbiyasi ular o'sib katta bo'lgan sari psixologiyasi, ongi va dunyo qarashiga qarab, o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib boradi. Ayniqsa 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash alohida e'tibor talab qiladi. Bolalarni tarbiyalash bilan birga ularning xulq-atvorini, o'qishi yoki ishini, bo'sh vaqtini kimlar bilan o'tkazishini har tomonlama o'rganish, to'g'ri yo'ldan adashib qolishi, ehtimoli sezilishi bilanoq, baxtsizlik va ko'ngilsiz voqealar yuzaga kelishining oldini olish imkoniyatini beradi. Ota-onalar o'z farzandlarini qanchalik sevmasinlar, uni o'z vaqtida erkalab, o'z vaqtida kamchiliklarini ko'rsatib, sababini chidamlilik va yaxshilab tushintirish yo'li bilan yo'qotish chorasini ko'rish lozim. Har bir ota-ona o'z farzandini tarbiyalashda, ularning jismoniy va ruhiy kamolotiga va o'qish to'g'risidagi g'amho'rlik qilish muhimdir. Oila, odob-ahloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor bizning qon-qonimizga singib ketgan burchdir. Farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muxim

ekanligini, ota-ona, ayol va erkakning oiladagi vazifalari desak xato bo'lmaydi. Quyida ota-onaning farzand oldidagi burch va vazifalarini sanab o'tamiz.

-Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

-Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

-Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

-Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega.

-Ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi shart.

-Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.

-Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

-Ota-ona o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.

-Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart. Ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar. Farzandingizga ko'ziningiz tushgan zohati ko'nglingga ishq tushadi.

Ota-ona uchun farzand jamiki borliqdan ortiqdir. Dunyoning hamma rangi, hamma ta'mini unga ilina boshlaysiz. Dono xalqimizda bir xadisda keltirilgan buyuk maqol "Hamma narsa niyatga bog'liq" ya'ni buni o'zbekcha talqinida "yaxshi niyat yarim davlat" deydilar. Ota-ona tilagi, duosi farzandning qismat yo'llarini belgilashi aniq. Tog'larga qarab, yaratgandan farzandinga tog'larday oriyat tila! Bog'larga qarab, fe'llariga shafolat tila! Deb bejizga aytishmaydi. Diyorimizda oila ma'naviyati va madaniyati asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bular zaminida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta'lim tarbiya yotadi. Shuning bilan birgalikda farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu – ota-ona tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e'tiboridir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bejiz aytilmagan. Serfarzandlik va bolajonlik; kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat; erkaklarning oiladagi yuqori mavqei, ayollarning royishligi; oila va nikohning muqaddasligiga e'tiqod; ota-onalarning farzandlar oldidagi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burch va mas'uliyatining muhim qadriyat sifatida e'tirof etilishi; oila sha'ni va obro'sining avaylab asralishi; kelin va qaynona munosabatlarining o'ziga

xosligi; katta oilalarda bobo va buvilarning rahnamoligi; qarindoshlar, qo‘ni – qo‘shnilar, mahalla – ko‘y oldidagi majburiyatini teran his qilish kabi o‘zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar zahirida dinimiz ta’limotlari yotadi. Dunyoda ota-ona eng ulug‘ zotlar hisoblanadi. Chunki ular o‘z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag‘ishlaydi. Farzandi katta bo‘lib, oila qurib ketgandan keyin ham u haqda qayg‘urishdan to‘xtamaydi. Ota-ona farzandi dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo‘lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta’minlashga harakat qiladi. Hatto buning uchun o‘zlari yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo‘lsalar yoki kechalari uyqudan qolsalar ham. Bugun yoshlarimiz baxtli, chunki ularning ota-onalari boshida, ular uchun kerakli narsalarni ortig‘i bilan olib bermoqda. To‘g‘ri, bu ishlar ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Afsuski, ba’zi ota-onalar o‘zlarining vazifalari faqat shu deb o‘ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidir. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: “Otaona farzandiga yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi”. Demak, ota-ona farzandiga beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg‘a emas, balki go‘zal xulq va yaxshi tarbiyasi ekan. Chunki kiyim, taom yoki sovg‘a bolaga ma’lum vaqt foyda beradi, vaqt o‘tishi bilan esa eskiradi. Go‘zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi. Nafaqat umri davomida, balki vafotidan keyin oxiratda ham naf keltiradi. Zero, hadisi sharifda: “Banda go‘zal xulqi ila kechalari ibodatda qoim bo‘luvchi hamda kunduzi ro‘za tutuvchining darajasi – savobiga erishadi”, deyilgan. Tan olish kerakki, ba’zi oilalarda ota-ona ertalabdan kechgacha ishlab, ko‘chako‘yda yuradi, uyda bo‘lgan vaqtlarida ham o‘z ishlari bilan ovora bo‘lib farzandlariga vaqt ajrata olmaydi. Natijada farzand tarbiyani telefon, internet, televizor hamda ko‘cha-ko‘ydan olmoqda. Shunday tarzda ulg‘aygan bola yaxshi xulqli, odobli, ilm-ma’rifatli va kelajakda el-yurtiga xizmat qilib, ota-onasiga rahmat olib keladigan bo‘lib ulg‘ayishiga kim kafolat bera oladi?! Farzandlarimiz, bo‘sh vaqtlarida nima bilan shug‘ullanmoqda, kuni bilan vaqtini nimalarga sarflayapti, uydagi televizor yoki kompyuterda nimalarni tomosha qilayapti, siz olib bergan telefondan yana qanday ishlarda foydalanmoqda, internetda qanday ma’lumotlarni o‘qib, qanday lavhalarni ko‘rmoqda, ko‘chada kimlar bilan do‘st bo‘lib, ular bilan vaqtini qanday o‘tkazmoqda yoki siz berayotgan pullarni qayerlarga sarflayapti?! Bunday ishlarda farzandni nazoratsiz qoldirish mumkin emas. Ota-buvalarimiz intiqlik bilan, yaxshi muallimlarni shaxarma-shaxar yurib daraklab, o‘z farzandlarini yoshligidan ularning yoniga qo‘yishgan, ustoz-shogirdlik munosabatlari bizda muqaddas sanalgan. Ustozlarning obro‘si esa, shogirdlarning xosilasiga qarab belgilangan. Xalqimiz shu bois, ustoz degan zotni boshiga ko‘targan va xanuz “Ustoz-otangdek ulug‘” degan gapni farzanlariga uqtirib keladi. Ota-onalik-

zargarlikdan ham nozik ish. Hech qachon farzandingizni bir-biridan ortiq ko'rmang va alohida ajratib maqtayvermang. Garchi boshqalarida o'ksinish paydo bo'lmasin. O'ksinish ma'lum darajada sinishdir. Bu ham farzandlar o'rtasida nizo tug'diradi. Farzandlar o'z-o'zidan yomon yoki yaxshi bo'lib qolmaydi. Ularning fe'li ota-onalari qilgan savob va gunohlari yoki berayotgan tarbiyaning to'g'rinoto'g'riligining natijasidir.

Xulosa qilib aytganda har kunlik xayotimizni 24 soatlik vaqt bilan hisoblasak ta'lim muassasalarida 6 soat nari borsa 7 soat vaqtini o'tkazadi. Bu vaqt ichida ustozlar bolaga bor maxorat va bilimni ulashadilar o'qishdan tashqari vaqtini otaonasi bilan o'tkazganligini inobatga olsak ota-onaning farzand tarbiyasidagi ma'suliyati ko'proq namoyon bo'ladi. Ota-onaning ma'suliyati farzandiga nomi jaranglagan diplom olib berish emas, balki uni haqiqiy ilmi, xunarli qilib tarbiyalashdir. Ilm va tarbiya-nur. Farzandingiz nurni qabul qilib oladigan zamin-u makon. Shu zamin toza bo'lsagina, nur singadi, undan bog' unadi, yo'qsa alafzor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B .Qodirov "Psixologiya" 2005-y Toshkent
2. O'. Asqarova "Pedagogika" 2015-y Namangan.
3. Ziyonet.WWW.Ru
4. Kasb psixologiyasi. Toshkent 2014-yil M. Ismoilova qo'llanma
5. Xadisi-sharif